

OILADAGI TARBIYA VA INSON KOMOLOTI MASALALARI

Tashpo‘latova Nodira Xudjamuradovna-
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi.
Abdug‘anieva Mashxura -“Amaliy psixologiya”
yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya:Ushbu maqolada oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va oilada tarbiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar:oila, tarbiya,bola, ijtimoiylashuv.

Erta rivojlantirishning asosiy maqsadi – bu baxtli bolalarni tarbiyalashdir. Bolaga yaxshi musiqa tinglash, xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyati uni tilshunos yoki musiqachi etib tarbiyalash maqsadida berilmaydi. Asosiysi – bola hayotidagi xursandchiliklar yanada ko‘proq bo‘lishi uchun uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komilikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida, oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So‘ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusini, sharm-hayosi kabi nozik tuyg‘ularining tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, birdaniga jamoa orasida uyaltirish, yaxshi o‘ylab ko‘rmaslik yoki jahl ustida tinimsiz kaltaklash mumkin emas. Jazo adolat mezoniga tayanib qo‘llanilmog‘i lozim. Zero, bu qo‘llanilgan jazo usuli o‘quvchining shaniga, g‘ururiga va uni ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi nazarda tutilishi kerak. Agar bu jazo usullari o‘zining samarasini bermasa, u holatda ehtiyotkorlik bilan maktab ma’muriyati va jamoa hamkorligida boshqa choralarni ishlab chiqish kerak.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviyat – ma’rifat keng quloq yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik

ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo‘ladi. Bunday jamiyat fuqarolarida sog‘lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo‘ladi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, xulq, axloq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. SHu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘htalib o‘tish joizdir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda ko‘p ilm olishi va insoniylik fazilatlarini, sifatlarini o‘zida ko‘nikmaga aylantirish lozim. buning uchun u o‘z ustida tinmay izlanishi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida ana shunday insonlar haqida bunday deydi: “Yaxshi fazilatlarni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur”. Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shavqatli, bilimdon, o‘zgalar uchun qayg‘uradigan, mard insonlarni ko‘zda tutsa, “Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi”, deydi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. Erkaklarimizda ularga xos mardlik, jasurlik, g‘urur kabi xislatlar meros bo‘lib kelayotgan bo‘lsa, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-hayo, shirinzabonlik kabi xislatlar asrlardan – asrlarga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda. Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma’naviy qiyofasidir.

Endilikda zamondosh yigit-qizlarimiz yurish-turishlari, xatti-harakatlari, kiyinishlari bilan o‘zlarini qanchalik taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko‘rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma’naviy merosning egasidirlar.

Yaponiyalik Masaru Ibuka - ko‘p qirrali va juda iste’dodli inson. Sony kompaniyasi asoschilaridan bo‘lgan jiddiy biznesmen bolalar psixologiyasi va pedogogikani chuqur o‘rgangan va o‘zining “Uch yoshdan keyin kech bo‘ladi” deb nomlangan bolalarni erta rivojlantirish borasidagi g‘aroyib qo‘llanmasini yaratdi.

U bolani rivojlantirishdan maqsad uni vunderkind qilib tarbiyalash emasligini doimiy tarzda qayd etgan. “Erta rivojlantirishning asosiy maqsadi – bu baxtli bolalarni tarbiyalashdir. Bolaga yaxshi musiqa tinglash, xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyati uni tilshunos yoki musiqachi etib tarbiyalash maqsadida berilmaydi. Asosiysi – bola hayotidagi xursandchiliklar yanada ko‘proq bo‘lishi uchun uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat”, - deb yozadi u.

Quyida Masaru Ibukaning “Uch yoshdan keyin kech bo‘ladi” asaridagi asosiy maslahatlarni keltirib o‘tamiz. O‘z vaqtida ular novatorlik g‘oyalari edi, hozirgi kunda esa mehribon va suyukli ota-otanelar uchun normal xulq-atvor normalariga aylanib boryapti.

Masaru Ibukaning asosiy maslahatlari

1. Bola kichik yoshidanoq insoniyatning eng yaxshi yutuqlari ichida bo‘lsin. Mumtoz musiqa tinglang, san’at asarlarini ko‘rsating, badiiy adabiyot o‘qib bering.

2. Bolani tez-tez qo‘lingizda ko‘taring. Bunday muloqot bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.
3. Chaqaloq bilan chuchuk tilda gaplashmang. Bola bilan tug‘ilgan paytidan boshlab kattalar tilida gaplashing.
4. Bola bilan har kuni shug‘ullaning. Hatto bir kunlik mashq ham hayratlanarli natijalarga olib keladi.
5. Bolaning oldida urishmang. Farzandingiz salbiy holatlarni ta’sirchanlik bilan his etadi.
6. Farzandingizga sizning joyingizda birga uxlashga ruxsat bering. Birgalikda uxlash bolaga rivojlantirish ta’sirini o‘tkazadi.
7. Bolani boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishga ruhlantiring. Bu bola aqli, raqobatbardoshlik, birinchi bo‘lish xissini oshiradi.
8. Farzandingizga o‘z manfaatlarini ilgari surish va hatto urishishni ham man etmang. Bahslar muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
9. Bolani cheklamang. Bola qo‘llari bilan amalga oshiradigan barcha mashg‘ulotlar uning aqliy qobiliyati va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
10. Bolani ehtiyotkorlik maqtang va jazolang. Ayniqsa o‘g‘il bolalarni ishlari uchun maqtash kerak, juda kam jazolang.
11. O‘zingizning “yaxshi” va “yomon”ingizni bolaga singdirmang. Bolaga o‘z hayot tajribasini sizning yordamingizda olishiga qo‘yib bering, vaqt o‘tishi bilan u hamma narsani o‘zi farqlay oladigan bo‘ladi.
12. Bolada biror narsaga qiziqish uyg‘oting. Buning uchun barcha sharoitlarni yaratib bering.
13. O‘tilganlarni takrorlang. Bu bola miyasida to‘g‘ri chizmalarni shakllantiradi.
14. Bolaga nafaqat ona, ota ham kerak. Ota va farzand o‘rtasidagi muloqotda hech qanday cheklovlar bo‘lmasligi darkor.
15. Bolalar hayoloti (fantaziya) sini ahmoqona deb hisoblamang. Orzu va hayol qilish qobiliyati bolaning ijodiy salohiyatini shakllantiradi.
16. Bolaga o‘zingizning shaxsiy buyumingiz sifatida qaramang. Bunday emas. Bundan tashqari, bu bolaning o‘z kuchiga ishonmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.
17. Bolada qo‘l orqali his qilish qobiliyatini rivojlantiring. Bolaga turli materiallar – yumshoq va qattiq, og‘ir va yengil, tekis va g‘adir-budir predmetlarni bering.
18. Bolaga u so‘ragan barcha o‘yinchoqlarini sotib olib bermang. O‘yinchoqlarning ko‘pligi diqqatni oladi, buning oqibatida ilm olish murakkablashadi.
19. Bolaga detallardan iborat o‘yinchoqlarni taqdim eting. Bola o‘yinchoqni o‘zi yig‘a olganida quvonchga to‘ladi. Tayyor o‘yinchoqlar davrida bu juda noyob.
20. Bolaning kichik motorikasini - yasash, applikasiyalar, shakllarni kesish va yig‘ish orqali rivojlantiring. Ma’lumki, “bolaning aqli – uning barmoqlarining uchida”.

21. Bola bilan piyoda sayr qiling. Piyoda yurish juda foydali, axir yurish vaqtida tananing 639 ta mushaklaridan 400 tasi harakatda bo‘ladi.

22. Bola biror narsa bilan shug‘ullanishni boshlaganida natijaga katta ahamiyat ko‘rsatmang. Axir uning uchun natija emas, jarayon muhim hisoblanadi. Unga qanchalik qiziq bo‘lsa, shuncha mehnat qilishiga qo‘yib bering.

23. Bola irodasiga qarshi chiqmang. Uning irodasiga qarshi ish qilishga majburlash orqali uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini sindirasiz.

24. Bolada nostandart fikrlash ko‘nikmasini shakllantiring. Standartlar standart odam qilib tarbiyalaydi.

25. Bolalarni tarbiyalashdan oldin ularning ota-onalari, ya’ni o‘zimizni tarbiyalashimiz lozim.

Maqolamizni Masaru Ibukaning a’lo darajali iqtibosi bilan yakunlamoqchimiz: “Farzand uchun eng yaxshi tarbiya – bu onaning mehridir. Ota-onalarning eng asosiy mashg‘uloti – farzandlarni tarbiyalash. Agar ular bunga rozi bo‘lmasalar, unda nima uchun farzandli bo‘lishdi?”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Minovarov B. «Pedagogika darsligi» 1992 y.
- 2.O.Xasanbaeva «Pedagogika tarixidan xrestomatiya»
- 3.J.Yo‘ldoshev “O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish”
- 4.X.Yo‘ldoshev “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, maxalla, ta’lim muassasalari hamkorligi” Kontseptsiyasi. 2012y.
- 5.Toshpo‘latova, Nodira Xudjamuradovna (2022). O‘QUVCHILAR TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 701-706.
- 6.Toshpo‘latova, N. (2021). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA–O‘QUVCHILAR RUHIYATINI HISOBGA OLISH. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (1).
- 7.Toshpulatova, N. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF EASTERN SCIENTISTS IN THE ORIENTATION OF STUDENTS TO THE PROFESSION. *Science and innovation*, 2(B4), 273-278.
- 8.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
- 9.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 10.Собирова, ФН (2024). Психологические особенности учащихся начальных классов. *Wire Insights: Журнал Innovation Insights* , 2 (2), 16–18.

- 11.Файзијева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).
- 12.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.
- 13.Нодира, Ф. (2018). Профессионально значимые качества и умения преподавателя иностранных языков. *Достижения науки и образования* , 1 (7 (29)), 83-85.
- 14.Fayziyeva, nodira. (2024). BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA ALOQA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8721>
- 15.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.
- 16.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.
- 17.Kamolova, S. (2022). АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ МАЪНАВИЙ СОҒЛОМ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ҒОЯСИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/5568>
- 18.Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. *Fan va innovatsiyalar* , 2 (B4), 267-272.
- 19.Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/941>
- 20.Amonxonova, Y. (2024). "MEN" KONSEPSIYASI INSONING O'ZINI-O'ZI ANGLASHI MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 44-49. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>
- 21.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING XORIJIY MAMLAKATLARDA O'RGANILISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>
- 22.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVASION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*,

- 4(1), 12-20. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9412>
- 23.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).
- 24.Odiljonova, K. (2023). O‘QUVCHILARDA SOG‘lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.
- 25.Abdudzokhronov, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 216-220.
- 26.Alibekov, D. (2024). TA‘LIM TIZIMINING BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 27-31. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9447>
- 27.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 28.Alibekov D. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ //Журнал музыки и искусства. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
- 29.Alibekov, Davron. “Sharq mutafakirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari.” *Журнал музыки и искусства* 2.1 (2021).
- 30.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA‘LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
- 31.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA‘LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
- 32.Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA‘LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>
- 33.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA‘LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING HORIJY MAMLAKATLARDA O‘RGANILISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>
- 34.Amonxonova, Y. (2024). “MEN” KONSEPSIYASI INSONING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHI MASALALARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 44-49. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>

- 35.Odiljonova, X. (2024). “MEN” KONSEPSIYASIGAYONDASHUVLARNING O‘ZIGA XOSLIGI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 62-70. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9515>
- 36.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 37.Soibnazarova, M. (2024). MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYANING O‘ZIGA XOS MEZONLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 71-77. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9534>
- 38.SOIPNAZAROVA Muqaddas Norpulatovna. (2023). TALABALARNING FIKRLASH MADANIYATINI RIVOVLANTIRISH. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 4(4), 96–99. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7844461>
- 39.Tashpulatova, N. (2022). O‘QUVCHI SHAXSINING TARKIB TOPISHIDA TAFAKKUR SHAKLLARINING ANAMIYATI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 165-169.
- 40.Ташпўлатова, Н. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН АДАБИЁТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ТОМОНЛАРИ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 148-153.
- 41.Toshpo'latova, N. (2022). OILADA MA’NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OТА-ONALARNING VAZIFALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(1).